Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK 9.433
ORCID: 0009-0006-3123-1241

BOBURNOMA MANBASIDA KELTIRILGAN PERSONAGRAFIK TAHLILI

Xolyorova Zarifa Jahongir qizi
Termiz davlat universiteti magistranti
E-pochta: zxolyorova@gmail.com

Annotasiya: Ushbu mazkur maqolada Zahriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida keltirilgan hukumdor va malikalar o'rganilgan.

Boburnoma asarida 1494-1529 yillar oralig'idagi ma'lumotlari asosida Movarrunnahr va Xuroson mintaqalarida mavjud davlat hukumdori va malikalari to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Ushbu ma'lumotlar ilmiy manbalar asosida tahlil qilinib xulosalar berilgan.

Tadqiqotning maqsadi Zahriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asrini o'rganish orqali asrda keltirilgan personal shaxslarning nomlari ularga berilgan tariflar, o'lkalar tarixini o'rganish bilan tarixda bo'lib o'tgan voqelarni gavdalantirishdan iborat.

Maqolada qo'llanilgan usullardan xolislik, tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik asosida Boburnoma manbasida keltirilgan hukumdor va malikalarning tasviriga bag'ishlangan.

Boburnomada temuriylar davlatida hukmdorlar va malikalar va saroy ayonlariga oid qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Mazkur ma'lumotlar temuriylar shajarasi, avlodlari, davlat boshqaruvida o'rnatilgan siyosiy iyerarxiya haqida bo'lib, kelgusida aynan shu mavzulardagi ilmiy tadqiqotlarga manba bo'ladi.

Kalit so'zlar: Boburnoma, mirzolar, Xuroson, Movaronnahr, Temuriy malikalar, Temuriylar shajarasi.

АНАЛИЗ ХАРАКТЕРА НА ОСНОВЕ ИСТОЧНИКА БАБУРНАМА

Аннотация: В статье изучаются правители и царицы, упомянутые в произведении Захриддина Мухаммада Бабура «Бабурнаме».

«Бабурнаме» содержит сведения о правителях и царицах государств регионов Моваррунахр и Хорасан, основанные на данных за 1494-1529 годы. Данная информация была проанализирована и сделаны выводы на основе научных источников.

Целью исследования является изучение «Бабурнаме» Захриддина Мухаммада Бабура, воплощение событий, имевших место в истории, путем изучения имен личностей, упомянутых в этом веке, данных им тарифов и истории регионов.

Статья посвящена изображению правителей и цариц в источнике Бабур-наме, на основе используемых методов: объективности, исторического анализа, сравнительно-логического анализа и хронологической последовательности.

«Бабурнаме» содержит ценную информацию о правителях, царицах и придворных государства Тимуридов. Эта информация касается генеалогии Тимуридов, их потомков и политической иерархии, сложившейся в государственном управлении, и в будущем послужит источником научных исследований по этим темам.

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

Ключевые слова: Бабурнама, мирзы, Хорасан, Мовароннахр, царицы Тимуридов, генеалогия Тимуридов.

CHARACTER ANALYSIS BASED ON THE BABURNAMA SOURCE

Abstract: This article studies the rulers and queens mentioned in the work of Zahriddin Muhammad Babur "Boburnoma".

The work of Baburnoma provides information about the rulers and queens of the state in the regions of Movarrunnahr and Khorasan based on the data from 1494-1529. This information is analyzed based on scientific sources and conclusions are drawn.

The purpose of the research is to study the century of Zahriddin Muhammad Babur's "Boburnoma" and to embody the events that took place in history by studying the names of the personal figures mentioned in the century, the tariffs given to them, and the history of the regions.

The methods used in the article are objective, historical analysis, comparative-logical analysis, and chronological sequence, and are devoted to the description of the rulers and queens mentioned in the source of Baburnoma.

The Baburnama contains valuable information about the rulers, queens, and courtiers of the Timurid state. This information is about the genealogy, descendants, and political hierarchy established in the state administration, and will be a source for future scientific research on these topics.

Key words: Baburnama, Mirzas, Khurasan, Movaronnahr, Timurid queens, Timurid genealogy.

"Bobur Mirzo xalqimizning buyuk farzandi. Adabiyot, ilm, ma'rifat nuqtai nazaridan u hamon yashayapti".

Shavkat Mirziyoyev

KIRISH. Tarixiy manbalar va tadqiqotlarni qadr-qimmatini xolisona baxolagan holda, Zahriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida hukumdorlar va ularning tasvirlanishini manbaviy ahamiyatiga etibor qaratsak ko'plab ma'lumotlar topish munkin.

Taniqli Hind siyosiy davlat arbobi Javoharlal Neru shunday yozgan edi: Bobur dilbar shaxs, Uyg'onish davrining tipik hukmdori, Jasur, uddaburon inson edi, u san'atni, adabiyotni sevardi, hayotdan zavqlanishni sevardi deb tarif bergan[1, 273].

Temuriylar tarixiga qiziqish yanada ortganligi bois, tarixiy manbalar, shu bilan birga ilmiy, ilmiy-ommabop va badiy asarlar qayta nashr etilmoqda[2, 74].

"Boburnoma" asari haqida to'xtaladigan bo'lsak, jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik, o'zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar. Eski o'zbek (chig'atoy) tilida yozilgan (taxminan 1518/1519 – 1530). "Boburiya", "Voqeoti Bobur", "Voqeanoma", "Tuzuki Boburiy", "Tabaqoti Boburiy", "Tavorixi Boburiy" kabi nomlar bilan ham ma'lum. Zahriddin Muhammad Boburning o'zi esa "Vaqoye" va "Tarix" degan nomlarni ishlatgan. Boburnomada 1494 – 1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindistonda sodir bo'lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil o'ta aniqlik bilan bayon qilingan bo'lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog'liqdir[3].

"Boburnoma" asarining XVII – XVIII asrlarda ko'chirilgan nusxalari Leningrad, Kalkutta, Agra, Haydarobod, Manchester,

London, Edinburg va boshqa joylarda saqlanmoqda.

"Boburnoma" 1586-yilda forsiy tilga tarjima qilinadi. 1705-yilda Vitsen tomonidan asarning bir qismi Gollandiyada nashr etiladi. Jon Leyden va U.Erskinlar asarning turkiycha va forsiycha nusxalarini solishtirib ingliz tiliga tarjima qilishadi hamda 1826-yilda Londonda nashr ettirishadi". A.Kayzer tomonidan nemis tiliga tarjima qilingan. Rashid Rahmat turk tiliga va Mixail Salyelar asarni rus tiliga tarjima qilishgan. 1857-yilda "Boburnoma"ni Qozonda turkiyshunos olim N.Ilminskiy tomonidan nashr etiladi. Asar 1826 – 1985-yillarda 4 marta ingliz tilida, 3 marta fransuz tilida, 1 marta nemis tilida nashr etilgan. Keyingi yillarda asar professsor V. Takston tomonidan AQSh da (1993) va Yaponiyada (1995 – 1996) nashr etildi.

Boburnomada bayon qilingan voqealar bayoniga ko'ra 3 qismga bo'linadi.

Jumladan:

1. Boburning Movarounnahrdagi (1494-1504) hukmronlik davri – Zahiriddin Muhammad Boburning otasi Umarshayx Mirzo xususida hamda Boburning Farg'ona taxtiga kelishi haqida. Temuriylar davlatidagi taxt uchun kechgan kurashlar oqibatida o'z ulusidan mahrum bo'lishi. Samarqand uchun Shayboniyxon bilan kechgan janglari va bularning barchasi behuda ketib Hisot tog`lari orqali Afg'onistonga yuz tutishi haqida voqealar bayon etilgan.

2. Zahiriddin Muhammad Boburning Afg'onistondagi (1504-1524) hukmronlik yillari, Kobulni zabt etishi, u erlarda mustaqil davlat tuzgani Eron shohi Ismoil Safaviyning yordami bilan Samarqandni yana ishg`ol qilgani lekin Shayboniylardan engilishi, Hindistonni zabt etish uchun hozirlik ko`rishi bayon etilgan.

3. Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistondagi (1524-1530) hukmronlik yillari – Ibrohim Lo`diyning mag`lubiyatga uchrashi va Shimoliy Hindistonni zabt etib Boburiylar davlatiga asos solishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbekistan Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng B.Ahmedov, A.Ahmedov, A.Asqarov, A.O'rinboyev, X.Ziyoyev, Azamat Ziyo, H.Bobobekov, T.Fayziev, R.Shamsutdinov, P.Ravshanov, U.U.Uvatov, Sh.Karimov, O.Bo'riyev, A.Boqiyevlarning tarixiy ilmiy-ommabop asarlarini misol qilsa bo'ladi[4, 772].

USULLAR

Maqolada umumiy qabul qilingan xolislik, tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida Boburnoma manbasida keltirilgan hukumdor va malikalarning tasviriga bag'ishlanib ilmiy manbalar asosida yoritib berishdan iborat.

NATIJALAR

"Boburnoma" asarida 1551 nafar tarixiy shaxslarning nomi tilga olingan. Ular ichida juda ko'p tarixiy shaxslar (Temuriy hukmdorlar, harbiy amaldorlar. Ilm-fan va san'at namoyandalari) va shoir mashoirlari (portretlari) ruhiyatlari mohirona chizilgan, ularning xatti-harakatlari, faoliyatlari bayoni orqali shaxsiy xususiyatlari (xarakterlari) ochib berilgan. Tarixiy shaxslarning qiyofalari va fazilatlarini yoritganda, Bobur ularga nisbatan haqqoniy munosabatda bo'lishga, ularning yashash tarzi va sharoitidan kelib chiqib, fe'l-atvorlarining eng muhim jihatlarini mumkin qadar aniq va ixcham iboralarda, lo'nda ifodalashga harakat qilgan. Ular orasida eng mashhuri, shubhasiz, buyuk sohibqiron **Amir Temur**dir. Asarda Temurbek nomi turli munosabat bilan 19 marta tilga olingan bo'lsa, Chingizxon nomi 6 o'rinda qayd etiladi. Markazlashgan davlat asoschisi, buyuk sarkarda va ilm-fan, adabiyot, san'at, madaniyat homiysi, temuriylar uyg'onish davri asoschisi Sohibqiron Amir Temur (1336 – 1405) nomi, hayoti, faoliyati bilan bog'liq o'ttizdan ortiq tasvir, lavha, izohlarning berilishi ham nihoyatda muhim. Bobur mirzo bobosi Temurbek nomini ilk bor otasi Umarshayx mirzo ta'rifida keltirgan: Valodat

va nasabi: sekkiz yuz oltmishda Samarqandta edi. Sulton Abusa'id mirzoning to'rtunchi o'g'li edi. Sulton Ahmad mirzo, Sulton Muhammad mirzo, Sulton Mahmud mirzodin kichik edi. Sulton Abusa'id mirzo Sulton Muhammad mirzoning o'g'li edi. Sulton Muhammad mirzo Mironshoh mirzoning o'g'li edi. Mironshoh mirzo Temurbekning uchunchi o'g'li edi. Umarshayx mirzo bila Jahongir mirzodin kichik, Shohrux mirzodin ulug' edi.

Bobur o'z asarining bir necha joylarida ulug' mutafakkir olim va hukmdor **Mirzo Ulug'bek** haqida ma'lumotlar berib o'tgan. Bobur bobokaloni Amir Temur va Ulug'bek qurdirgan me'moriy obidalar va bog'-rog'lar haqida maroq bilan hikoya qilgan. "Ulug'bek mirzoning imoratlaridin Samarqand qal'asining Ichida madrasa va xonoqohdur. Xonaqohning gunbazi bisyor ulug' gunbazdur, olamda oncha ulug' gunbaz yo'q deb nishon berurlar. Yana ushbu madrasa va xonaqohga yovuq bir yaxshi hammom solibtur, Mirzo hammomig'a mashhurdur, har nav'toshlardin farshlar qilibtur. Xuroson va Samarqand oncha hammom ma'lum emaskim, bo'lg'ay. Yana bu madrasaning janubida bir madrasa solibtur, Masjidi Muqatta derlar. G'olibo bu masjidning qiblasi bila madrasa qiblasining orasida bisyor tafovuttur"[5, 390]. "Boburnoma" da nafaqat Ulug'bek mirzoning kim tomonidan o'ldirtirilgani, balki o'sha voqeanuing aniq tafsilotlari va qatl etilgan yil ham keltirilgan:

Ulug'bek bahri ulumi xirad,
Ki dunyovu dinro az o' bud pusht.
Zi abbos shahdi shahodat chashid,
Shudash harfi tarix "Abbos kusht".

Tarjimasi: Ilm va aql dengizi bo'lgan Ulug'bek dunyo va dinning tayanchi edi. Abbos qo'lidan shahidlik bolini totdi. Hijriy 853-yil milodiy 1449-1450 yillarga mos keladi. "Boburnoma" da Ulug'bek mirzoning o'limiga sababchi Abdullatifning o'limining abjad hisobidagi tarixi "Bobo Husayn kusht" so'zlaridan iborat ekanini ham yozib o'tgan.

Umarshayx mirzo Bobur mirzoning otasi bo'lib, baland himmatliq va ulug' doiyaliq podshoh bo'lib, past bo'yluq, tegirma soqolliq, qo'ba yuzluk, tanbal kishi edi. To'nni bisyor tor kiyar edi, andog'kim, bog' bog'laturda qornini ichiga tortib bog'latur eli, bog' bog'lag'ondin so'ng o'zini qo'ya bersa, bisyor bo'lur edikim, bog'lari uzulur edi. Kiymoqta va emokta betakalluf edi, dastorni dastorpech chirmar edi. Umarshayh mirzo Sulton Abusaid mirzoning to'rtunchi o'g'li edi. Sulton Ahmad mirzo, Sulton Muhammad mirzo, Sulton Mahmud mirzodan kichik edi. Sulton Abusaid mirzo Sulton Muhammad mirzoning o'g'li edi. Sulton Muhammad mirzo Mironshoh mirzoning o'g'li edi. Mironshoh mirzo Amir Temurning uchunchi o'g'li edi. Umarshayx mirzo bila Jahongir mirzodan kichik, Shohrux mirzodan ulug' edi .

Bobur o'z asarida otasi haqida batafsil ma'lumot berar ekan, Umarshayx Mirzodan uch o'g'ul, besh qiz tug'ilgan edi[5, 67] deb quyidagi farzandlarini qayd etgan.

O'g'illari:

1. Bobur mirzo;
2. Jahongir mirzo;
3. Nosir mirzo.

Qizlari:

1. Xonzodabegim;
2. Mehrbonubegim;
3. Shahrbonubegim;
4. Sultonbegim;
5. Ruqiya Sultonbegim.

Xonzoda begim Umar Shayx Mirzoning (1456 – 1494) qizi, Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzoning opasi[5, 66]. U 1478-yilda Andijonda tug'ilgan. Uning onasi – Qutlug' Nigor xonim Toshkent xoni Yunusxonning qizi edi. Tarixiy manbalarga ko'ra, Xonzoda begim did-farosatli, o'tkir zehnli va aql-zakovat sohibasi bo'lgan. Xonzodabegim o'zining aql-idrokligi va tadbirkorligi natijasi o'laroq, saroy malikalari orasida yuksak e'tiborga ega bo'ladi. Xonzoda begim Bobur shoh va uning taxt vorisi Humoyunshoh saroyida maslahatchi vazifasini bajargan.

Xonzoda begim Muhammad Shayboniyxon bilan nikohidan, bir o'g'il dunyoga kelgan, Xurramshoh ismli maqbul o'g'lon edi. Balx viloyatini Xuramshohga bergan edi. Muhammad Shayboniyxon vafot etgach bir-ikki yildan so'ng qatl etildi.

Sulton Ahmad mirzo Bobur mirzoning tog'asi bo'lib, baland bo'yli, shunqor soqolliq, qizil yuzli, tanbal kishi edi. Soqoli iyagida edi. Ikki yangoqida soqoli yo'q edi. Bisyor xushmuommla kishi edi deb tasvirlaydi[5, 67].

Boburning amakisi Samarqand hukmdori Sulton Ahmad mirzoning vafotidan

So'ng Buyuk Amir Temur poytaxtini egallash uchun Movarounnahrdagi temuriyzodalar o'rtasida ayovsiz kurash boshlanadi. Sulton Ahmad mirzoning o'g'il farzandlari yo'q uchun avvaliga Samarqand taxtiga Boburning yana bir amakisi Sulton Mahmud mirzo o'tirgan. Bir yil o'tmay Sulton Mahmud mirzo ham hayotdan ko'z yumgan va unung o'g'illari o'rtasida tax tuchun kurash boshlangan. Bu kurashda Farg'ona podshohi Bobur ham ishtirok etgan.

Sulton Mahmud mirzo Samarqand hukmdori bo'lib, past bo'yli, burma soqolliq, tanbal kishi edi. Namozni tark qilmas edi. Siyoq ilmini xo'b bilur edi. Viloyotdin bir dirham va bir dinor aning bevuqufi xarj bo'lmas edi. Navkariiing ulufasi aslo munkasir bo'lmas edi deb tasvirlaydi.

Boburnomada **Sulton Husayn Mirzo** haqidagi ma'lumotlar ancha to'liq berilgan. Uning tug'ilgan yili, ota-bobolari, aka-opalari, farzandlari, xotinlari, amirlari haqida batafsil to'xtab o'tiladi.

Muhammad Shayboniyxonning Movaraunnahr va Xuroson hududlarini bosib olish jarayonlarini ketma-ketlik asosida bosib olinishini to'liq yoritgan.

Bubur mirzoning ona tomondan bobosi Yunusxon Chengizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxonning naslidindur. Yunusxon ibn Vaysxon ibn Sherali Ug'lon ibn Muhammadxon ibn Xizir Xojaxon ibn Tug'luq Temurxon ibn Esan Bug'axon ibn Do'vaxon ibn Baroqxon ibn Yesun Tuva ibn Mutugon ibn Chig'atoyxon ibn Chingizxon. Boburnomada nafaqat hukumdorlar nomlari va ularning shakl shamoyili haqida balki shajarasi haqida ham ko'p ma'lumotlar uchraydi. Yunusxonning ikki qizi va ikki o'g'li borligi haqaida yozib o'tgan.

Boburnoma manbasida Temuriy shaxzodalarning ism-shariflarini ketma-ketlikda manbashunos olim Anvar Boqiyev va Zubayda Yo'ldosheva tomonidan tuzilgan jadvalda ko'rib o'tishimiz mumkin[6]. Ushbu jadvalda keltirilgan 90 ga yaqin hukumdorlar nomlari joy olgan. Shuningdek 20 nafar hukumdorning tavallud va vafot etgan sanalariga oid xronologik ma'lumotlarni ham keltirib o'tgan[5].

MUNOZARA

Boburnomani ilmiy asosda o'rganish va tarjima qilish asar yaratilagan XVI asrdan boshlab hozirgi kunga qadar davom etmoqda. Hozirda qirqqa yaqin tillarga tarjima qilingan[7].

Boburnomaning o'ndan ortiq qo'lyozmalari mavjud bo'lib, tarjima va nashrlar ushbu qo'lyozmalar asosida amalga oshirilgan. XIX asrda rus olimlari: N.Ilminskiy, I.V.Stebleva, A.N.Samoylovich hamda xorij olimlari: J.Leyden, U.Erskin, L.U.King, R.M.Kaldekot, F.G.Talbot, S.Leyn-Puul, E.Holden, M.Elfinston, G.M.Elliot, A.Denison Ross, V.X.Morleand, A.S.Beverij, A.de Long-Per, A.J.Klaport, J.Dranjete, Pave de Kurteyl, Jan-Pol Ru, Lui Bazen, Jan-Lui Bakye Grammon, Ahmad Ali Ko'hzod, Abdulhay Habibiy, Shafiqa Yorqin, Gulchin Maoniy, Zokir Husayn, Nurul Hasan, Muni La'l, M.Haydar, S.P.Sharma, H.Lemb, U.Tekston, Temur Xamit, Bayuzak Kojabeko'g'li, Rashit Rahmati Arat, Bilol Yujel, Eyji Mano kabi olimlarning xizmatlari katta bo'lgan[8].

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish keakki, Boburnomada keltirilgan hukmdorlar va malikalarning faoliyatiga oid qimmatli

ma'lumotlar shu davrda yuz bergan voqelarni qayta gavdalantirishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. ЖАВАХАРААЛ НЕРУ. «Ҳиндистоннинг кашф этнлиши», 272 – 273 бетлар.
2. Йўлдошева З., Боқиев А. Ўзбекистон тарихи ва маданияти, Республика илмий-амалий анжуман марериаллари. Темурийлар шажарасининг "Бобурнома"даги талқини. 74-бет.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Boburnoma.
4. Hakimova Muyassar Rashidovna. (2023). TEMURIY MALIKALARNING HAYOTI VA FAOLIYATIGA TARIXIY NAZAR. International journal of education, social science & humanities. finland academic research science publishers, 11(4), 763–772. https://doi.org/10.5281/zenodo.7824484.
5. ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД ВОБИР. БОБИРНОМА. УЗБЕКИСТОН ССР ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ НАШРИЁТИ. Нашрга танёрловчилар: ПОРСО ШАМСИЕВ., СОДИК МИРЗАЕВ. ТОШКЕНТ - 1960. 390 бет.
6. Йўлдошева З., Боқиев А. Ўзбекистон тарихи ва маданияти, Республика илмий-амалий анжуман марериаллари. Темурийлар шажарасининг "Бобурнома"даги талқини. 76-80 бетлар.
7. Boburnomaning tarjimalari, horijda o'rganilishi haqida qarang: G'aybulloh as-Salom, Ne'matulloh Otajon. Jahongashta. Boburnoma. - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1996; Saydaliyev T. Bobur asarlarining xorijiy tillardagi tarjimilari tarixidan // Adabiy meros. 1998. №1-2. 61-63-b.
8. Ilhom ASLONOV. (2023). "BOBURNOMA" DA HUKMDOR ETIKETI VA SIYOSIY IYERARXIYA BADIIY PSIXOLOGIK TASVIRI. https://doi.org/10.5281/zenodo.8255912.